

ISLOM MANBALARIDA KELGAN XOTIN-QIZLARNING OILA VA JAMIYATDAGI HUQUQLARI HAQIDAGI BA'ZI MULOHAZALAR

Abdulfaizova Durdona

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada xotin qizlarning oila va jamiyatdagi huquqlarining shariy asoslari haqida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Qur'on. Hadis, ayol, oila, jamiyat.

Yurtimiz zaminida ayol zoti azaldan yuksak darajada e'zozlangan. Xotin-qizlarning oiladagi mavqei sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, farzand tarbiyasiga mashg'ul bo'lish bilangina o'lchanmagan. Bu borada muqaddas islom dinida xotin-qizlarga alohida ehtirom ko'rsatilib, barcha insonlar, jinsidan qat'i nazar, teng ekani aytiladi. Islom dini ayolga zulm qilmaydi, uni hech qanday huquqlardan mahrum qilinmaydi, aksincha, uni eng yuksak qadr-qimmatga ko'taradi, unga to'liq huquqlarni beradi, adolatsizlik va aldanishdan himoya qiladi. Ayollarning asosiy vazifasi oilani himoya qilishdir. U o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga yaxshi axloqiy va islomiy qadriyatlarni singdirib, ularda mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Shuningdek ayol oilaning farovonligini ta'minlaydi va uning iqtisodiy faolligi va mahsuldorligini oshiradi. Ayol oilada g'amxo'rlik va mehr manbai bo'lib hizmat qiladi. Ko'plab tadqiqotlar shuni isbotladiki, bolaga hayotning dastlabki bosqichlarida zarur bo'lgan g'amxo'rlik va e'tibor unga kerak bo'lgan moddiy narsalardan ko'ra muhimroqdir. Ona bolaning yagona o'qituvchisi hisoblanadi va uning ta'lim funktsiyasi bolaga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki ular uning o'zini anglashi, o'ziga ishonchi, shaxsiyatini shakllantirish va tayyorlashda rol o'ynaydi. Ushbu bosqichning bola hayotidagi ahamiyatini hisobga olib, uni onasi diqqat bilan kuzatishi shart. Uning dastlabki yillarida o'rgangan narsasi butun umri davomida u bilan qoladi.

Xotin qizlarning roli faqatgina uning oiladagi mavqei, vazifalari bilan belgilanmaydi. Ayollar jamiyat rivojida ham muhim ahamiyatga egadirlar. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi rolini beqiyosdir. Jamiyatda ayollar faol rol o'ynaydilar. Bu borada zamonaviy qonunlarda ayollar huquqlari, ularning jamiyatdagi faoliyati, rivojlanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan tashqari islom dinida, xususan, islom fiqhi(huquqshunosligi)da ham ayollarning huquq va majburiyatlari, ularning o'rniga alohida to'xtalib o'tiladi. Alloh taolo Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam orqali ayollarning qadr-qimmatini yuksaklarga ko'tarib, Qur'oni karimda ham ular uchun alohida sura nozil qildi. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida ayollarga oid barcha masalalar, jumladan, ularning jamiyatdagi o'rni, oiladagi, farzand tarbiyasidagi roli, ilm tarqatishdagi mas'uliyati

kabilar batafsil bayon qilingan. Ilk islom davridan to zamonamiz ulamolarigacha, barchalari o'zlarining ilmiy asarlari va kitoblarida ayollar uchun alohida boblar ajratishga ahamiyat berganlar¹. Bugungi kunga kelib, ayollarning jamiyatdagi o'rni kengayib, oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi kabi masalalarni o'rganish, turli salbiy oqibatlarining oldini olish ishlariga e'tibor kuchayib bormoqda². Islom dinini ayollarning o'rniga ta'sirini baholash uchun Islomdan oldingi Arabistondagi ayollarning o'rnini ko'rib chiqish kerak. O'sha paytdagi ayollarning holati ko'p narsalarni orzu qilishga qolgan edi. Qashshoqligi tufayli ota-onalar yangi tug'ilgan qiz chaqaloqlarini o'ldirganlari haqida dalillar mavjud. Islom arab jamiyatining tuzilishini o'zgartirdi, gender rollarini isloh qildi. Professor Villiam Montgomerining tadqiqotiga ko'ra, Islom ayollarning holatini yaxshilagan, ularga huquqlar bergan. Ba'zi tadqiqotchilar Islomga ko'ra ayollar 20-asrgacha bo'lgan ba'zi G'arb mamlakatlariga qaraganda ko'proq huquqlarga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Masalan, fransuz qonunchiligiga muvofiq ayollarning huquq layoqatini cheklash faqat 1965-yilda bekor qilingan³. Jumladan, Misrdagi Al-Azhar universitetining fiqhshunos olimasi, doktor Suad Solih musulmon ayolining o'z oilasi va jamiyatda munosib o'rin olishi borasida ushbu fikrlarni bildiradi:

“Ayollarga huquqlarini berish, ularga zulm qilmaslik, ularni erlar zulmidan qutqarish, jamiyatda o'rinlarini belgilash, umumiy vazifalarda hissalarini oshirish ko'pchilik da'vat qilayotganidek, ilohiy yo'riqlardan, shar'iy axloq va odoblardan chetga chiqish bilan, ya'ni G'arbdan kirib kelgan chaqiriqlarga ko'r-ko'rona ergashish bilan emas, balki Qur'oni karim va hadisi shariflarda ayol sha'nida vorid bo'lgan ta'limotlarni to'g'ri tushunish va Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam zamonlarida hamda musulmonlar ravnaq etgan davrlarda namoyon bo'lgan yorqin va oliy namunalarga ergashish bilan ham bo'ladi”⁴ Zero, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam yashagan davrda va o'rta asrlarda ayollar ijtihodda, hadis rivoyat etishda, adabiyotda, ta'lim-tarbiyada, iqtisodda, boshqaruvda, harb va siyosatda faol edilar.

Ayollar islom sivilizatsiyasida katta o'rin egallagan hamda bir qancha davrlarda erkaklar bilan barcha sohalarida raqobatlasha olgan yoki hayotning turli jabhalarida yonma-yon ishtirok etgan. Hatto islom tarixida ismlari mashhur bo'lgan, katta faqih ulamolardan bir qanchasi ularning qo'llarida shogird bo'lgan faqiha ayollar juda ko'p bo'lgan. Bunga misol qilib Oisha onamizni keltirishimiz mumkin. Faqiha ayollardan birinchi bo'lib erkaklarga ta'lim bergan mo'minlar onasi Oisha onamizdir. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan so'ng sahobai kiromlar, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning “Diningizni yarmini bu qizil yuzli

¹ <https://fitrat.uz/islom-manbalarida-ayollar-tavsifi> 30.10.2023.

² Poshshaxon Eshonxon qizi. Ayol-mo'tabar zot: ayollatga oid eng zarur fiqhiy masalalar-T.: “Hilol-Nashr”, 2018.-3 b.

³ <https://ar.m.wikipedia.org>. 02.11.2023.

⁴ <https://fitrat.uz/islom-manbalarida-ayollar-tavsifi>. 30.10.2023.

xonimdan olinglar” degan vasiyatlariga ko‘ra, u kishidan ilm o‘rganar va savollar so‘rab murojaat qilishar edilar. Ba’zi sahobalar u kishidan tinimsiz xabar olib turishar edi. Ulug‘ sahoba Abu Muso al-Ash‘ariy bu haqda shunday der edilar: “Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning sahobalarida biron bir bilmagan narsa chiqib qolsa, Oisha onamizdan so‘rasak, bu haqda albatta malumot topar edik”. Oisha onamizdan jami 2210 ta hadis rivoyat qilingan. Shu bilan birga islomdagi birinchi muftahid sahobiy ayol ekanligini ham unutmashimiz lozim. Misol qilib ayollarga xos masalalarda; hijob masalasida boshni yopib turadigan yopinchiq soch o‘rami va badanni bildirmaydigan darajada qalin bo‘lishi, ayollarning xina bilan bezanishi borasidagi ijti hodlari, to‘rt rikatli farz namozlarda so‘ngi ikki rikatida (uchinchi, to‘rtinchi) “Fotiha” surasini o‘qish lozim, degan ijti hodlarini keltirishimiz mumkin.

Tarixda ayollar erkak zotiga jufti halol bo‘libgina qolmay, ulug‘ voqea-hodisalarning ishtirokchisi va aynan guvohi ham bo‘lishgan. Ayol zoti uy-ro‘zg‘orni obod qilish va bolalarni tarbiyalash barobarida turmush o‘rtog‘iga uning boshqa ishlarida yordam berish va ba’zi hollarda hal etishga qiynalib turgan muammo yechimini zukkolik bilan topib berishda ko‘maklashgan holatlar ham uchragan. Xususan, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam rafi qalari Ummu Salamaning shunday tadbir ila noqulay holatdan chiqargani tarix sahifalarida ulug‘ voqea sifatida qayd etiladi. Makka mushriklari bilan Hudaybiya sulhiga kelishuvni musulmonlar yoqtirmaydilar. Shu bois ular soch oldirishdan bosh tortganda Ummu Salama (r.a) ning Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga bergan maslahati katta foyda beradi. Bu voqea shunday bo‘ladi: “Quraysh elchilari bilan tinchlik sulhi tuzilgach, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam sahobalariga qurbonliklarni so‘yishni va sochlarini oldirishni amr etadilar. Sahobalar shartlarini og‘ir deb bilgan bu sulhning vahiy bilan bekor qilinishiga umid bog‘lab, Payg‘ambar (s.a.v) ning aytganlarini qilmadilar. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam uch marta takrorladilar, lekin hech kim bajarmagach, xafa bo‘lib, Ummu Salama (r.a): “ Yo Rasululloh, sahobalaringiz bu vazifani bajarishini istaysizmi? Chiqing, hech kimga gapirmasdan, qurbonlikni so‘ying, sartaroshni chaqiring, sochingizni olsin”, dedi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam rafi qalari ishorat etgan fikrni to‘g‘ri deb topdilar. Bunday qilish insonlarni harakatga tushirish uchun bir amaliy tashviq bo‘lar edi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam o‘rnilaridan turib, Ummu Salama (r.a)ning oldidan chiqib, uning aytganidek qildilar. Buni ko‘rgach sahobalar ham o‘rnilaridan turib, qurbonliklarini so‘ydilar, sochlarini oldirdilar”⁵.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, xotin-qizlar jamiyatning yarmi hisoblanadi va ular hayotning barcha jabhalariga ta’sir qiladi. Bugungi kunda mavjud bo‘lgan qonunlar ayollarning qanday vazifalari, huquq va burchlari mavjudligini ko‘rsatadi.

⁵ Poshshaxon Eshonxon qizi. Ayol-mo‘tabar zot: ayollarga oid eng zarur fiqhiy masalalar-T.: “Hilol-Nashr”, 2018.-3 b.

Bundan tashqari islom dinida ham ayollarga alohida e'tibor qaratilib, ularning huquqlari mustahkamlanib qo'yilgan. Ayollarni hurmat qilish va ularning fikrlarini inobatga olish kerak, chunki ular uyda yetakchilikka ega va ular jamiyatni yaratishda muhim va samarali ro'l o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Poshshaxon Eshonxon qizi. Ayol-mo'tabar zot: ayollarga oid eng zarur fiqhiy masalalar-T.: "Hilol-Nashr", 2018.-3 b.
2. Musulmon ayollarning jamiyat qurilishidagi rolining haqiqiylik va zamonaviylik o'rtasidagi ahamiyati: tavsifiy huquqshunoslik tadqiqoti - Amerika xalqaro gumanitar va ijtimoiy fanlar jurnali
3. <https://fitrat.uz/islom-manbalarida-ayollar-tavsifi>.
4. <https://ar.m.wikipedia.org>.
5. <https://www.aijhssa.us>